Birinchi davr: Ilk sarmat davri (yoki Proxorov madaniyati) miLav. IV —II asrlar. Ikkinchi davr: Urta Sarmat davri (yoki Suslov madaniyati). MiLav. I milodiy I asrlar. Import buyumlarning kupayishi va boy kabrlarning (Povoljeda Kosika, Kuyi Donda «Novocherkassk xazinasi» va x.k) paydo bulish jarayoni yuz bergan. Uchinchi davr: Sunggi sarmat (yoki Alan davri) Milodiy II —III asrlar. 2.Kavkazorti xududi ilk temir asrida. Urartu davlati. Kavkazortidagi ilk temir asridagi davlat Urartu xisoblanadi. Bu davlat Arman tog yon bagrilarida mil.av. IX-VIII asrlarda xukm surgan. Urartu xalki xurritlarga karindosh xalklardan bulib Van kuli atroflariga mil.av. II ming yillikda kelib urnashgan. Urartu davlatidan unlab shaxar va kal'alar toshlarga bitilgan mixxatlar, turli-tuman san'at namunalari bizgacha etib kelgan. Mil.av. IX asrda Urartu davlatining poytaxti Tushpa Van (Van kuli buyida) ga asos solinadi. MiLav. VIII asrning boshlarida Erebuni va Argishtixinili shaxarlar paydo buladi. MiLav. VII asrda Teyshebaini , Rusaxinili kabi shaxar shakllanadi. Bu shaxarlar odatda 300 dan 200 gacha (Arshitixinili 400 - 500 ga ) maydonni ishgol etib odatda baland tepaliklar ustida barpo etilgan.

Erebuni va Arshitixinililar saroy inshootlar majmui kazib urganilgan. Bu binolar turli xil mazmun kasb ettirib ishlangan devoriy suratlariga bezalgan bulgan. Urartu metall buyumlar ishlash (masalan, Arshitixinilida kazib ochilgan ustaxonalar), toshni kayta ishlash (masalan,saroylar kurilishi), temirdan mexnat kurollari va kurol — aslaxalar yasash (shu jumladan temir pluglar) yoki xarbiy kurol — aslaxalardan kilichlar, dubulga (podsho Arshisti va x.k. dubulgalari) .Sopol buyumlar yasash xususan tuzilishi etikning kurinishi va x.k. uxshash turli — tuman va moddiy madaniyatning x.k. turlari Urartu madaniyatidan dalolat beradi. Urartu davlati miloddan awalgi VI asrda skiflar va x.k. xujumlari okibatida kulaydi. MiLav. 1 ming yillikda tarix saxnasiga paydo bulgan Urartu davlati va skiflar Evroosiyo xalklari tarixida muxim urin tut-°-ganlar. Urartu davlati Evroosiyo xududidagi eng kadimgi davlat xisoblansa, skiflar undan sung sarmatlar Soroosiyo dashtlarida bir kancha etnik gurux va xalklarning shakllanishida muxim rol uynaganlar.



## 8 - Mavzu: URTA OSIYO ILK TEMIR DAVRIDA.

(2 soat)

### 2-KISM.

Reja:

1. Urta.Osiyoda temir buyumlarning paydo bulishi masalalari.
2. Janubiy Turkmaniston xududida ilk temir asri.
3. Janubiy Uzbekistonning ilk temir asri madaniyati.

### TAYANCH SUZLAR.

Ez 1 komplekslari, V.M.Masson, AAAskarov, P.I.Albaum, Yu.A.Zadneprovskiy, Anau, Elkendepa, Afrosiyob, Lolazor, Talloshkon 1, Kiziltepa.

Temir asrining umumiy ta'rifida kuxna dunyoda dastlabki temir buyumlarning paydo bulishini mil.av. XU asrga oidligini ta'kidlab utgan edik. Urta Osiyoda temir buyumlarning yoki umuman temir asrining boshlanish sanasi munozaraga sabab bulib kelmokda. Tanikli arxeolog olim V.M.Masson 1959 yilda nashr etgan (Margiyonaning kadimgi dexkonchilik madaniyati. «Drevnezemledelogecheskaya kultura Margiani. M —L., 1959) asarida Urta Osiyoda temir asrining boshlanishini Yaz 1 davriga, ya'ni miloddan avvalgi 900 — 650 yillarga oid deb aniklagan edi. A.Askarov va LJAlbaumlar Urta Osiyoda ilk temir asrining boshlanishini Kuchuk II davriga , ya'ni miloddan avvalgi 7500 — 600 yillarga oid deb ta'kidlaydilar. Arxeolog — olim A.S.Sagdullaev Urta Osiyo yodgorliklarida temir buyumlarning paydo bulishi sanalarining majmuini yaratgan.

#### 1. Janubiy Turkmaniston.

Anau — miloddan avvalgi IX —VTI asrlar.

Anau — miloddan avvalgi U —IV asrlar.

Elkendepa — miloddan avvalgi U asr.

#### 2. Sugd ulkasi.

Daratepa (Kashkadaryo viloyati) — miloddan avvalgi VII-VI asrlar.

Lolazor (Samarkand shaxri xududida) — mil. Av. VI — IV asrlar.

Afroosiyob (eng kuyi katlam) — miloddan awalgi VI - U asrlar.

3. Xorazm va sak yodgorliklari.

Kuyisoy — miloddan awalgi VTI — IV asrlar.

Uygarak — miloddan awalgi VII — U asrlar.

Kuzali kir — miloddan awalgi VI — U asrlar.

Dingilji — miloddan awalgi U asr.

4. Baktriya ulkasi.

Gozimulla — miloddan awalgi VI — U asrlar.

Kizilcha 1 — miloddan awalgi VI — U asrlar.

Kal'ai Mir — miloddan awalgi VI — IV asrlar.

Kizilcha IV — miloddan awalgi U — IV asrlar. 5. Fargona vodiysi.

Dalvarzin — miloddan awalgi VIII asr.

Oktom — miloddan awalgi U — IV asrlar.

Dashti Asht — miloddan awalgi U — IV asrlar.

6. Pomir mozorlari topilgan temir buyumlar sanasi.

Tegirmon suv — miloddan awalgi VI asr.

Okbayt — miloddan awalgi VI — IV asrlar.

Tomdi — miloddan awalgi U — IV asrlar.

Alichur 2 — miloddan awalgi U — IV asrlar.

Uzbek—olmon arxeologik guruxining janubiy  
Uzbekistondagi bronza (jez) asrining eng yirik  
yodgorligi (Uzbekiston xududidagi eng dastlabki  
shaxar) katlamlarida miloddan awalgi XIII asrga  
mansub temir buyum koldigini topib urgandilar. Bu  
topilma arxeolog — olimlarga janubiy Uzbekiston xududida istikomati etgan  
kabilalar xettliklari bilan ayni bir vaktida temir buyumlar bilan tanisha  
boshlaganliklaridan dalolat beradi. Urta Osiyoda ilk temir asrining boshlangich  
nuktasi miloddan awalgi 1 ming yillikning boshlari deb aniqlangan bolsa, miloddan  
awalgi IX — VIII asrlar sunggi jez (bronza) asridan ilk temir davriga utish boskichi  
xisoblanadi. Yukorida temir buyumlarning paydo bulishi sanalari majmua — sidan  
kurinib turibdiki Urta Osiyoda temir buyum — larning ommaviy ravishda turmushda  
foydalanishi miloddan awalgi VII — VI asrlarga oid.

2. Janubiy Turkmaniston xududida ilk temir asri. Janubiy Turkmanistonning ilk  
temir davri yodgorliklarini urganish asrimizning boshida R.Pompelli faoliyati bilan  
boshlangan. 1950 yillarda Marv voxasida V.M.Masson tomonidan Yazdepa va

x.k. yodgorliklarda keng kulamda tadkikotlar utkazildi. Tadkikotlar asosida Marv voxasining uzida bir kancha dexkonchilik voxasi va ularning Markaziy shaxri aniklangan.

- 1.Toxirboy dexkonchilik voxasi. Bu voxa tarkibiga Toxirboy I, II va Churknok kabi yodgorliklar kiradi. LYazdepa dexkonchilik voxasi. Bu voxaning markazi atrofida unga nisbatan kichik yodgorliklardan tarkib topgan Yazdepa xisoblanadi.
- 2.Aravamdepa dexkonchilik voxasi. (8 yodgorlikdan tarkib topgan).
- 3.Taip dexkonchilik voxasi. (7 yodgorlikdan tarkib topgan).
- 4.Tugalok dexkonchilik voxasi. (Tugalok dexkonchilik voxasi uz tarkibiga 10 dan ortik odgorlikni birlashtiradi).

Shimoliy Parfiya xududida ilk temir asri yodgorliklarining urganilishi tarixi XX asrning birinchi un yilligida tadkikotlar utkazgan Amerika ekspeditsiyasi faoliyati bilan boglik . (R.Pompelli tomonidan Anau yodgorligining janubiy yon bagrida amalga oshirilgan kazuv ishlari tufayli Anau IV deb nomlangan arxeologik katlam (kompleks) paydo buldi).

Keyinchalik Parfiya ulkasidagi ilk temir asri yodgorliklarini urganish ishiga A.A.Maruhenko, S.A.Erisov (asrimizning 40 — 50 yillari), V.I.Sarianidi, K.A.Kachuris (asrimizning 60 — 70 yillari) lar muxim xissa kushganlar. Shimoliy Parfiyaning ilk temir asri yodgorliklari 3 turga bulinadi: 1)arki — a'loli yodgorliklar. 2) umumiy maydoni 1 hektarga yakin yodgorliklar. 3) kichik yodgorliklar (umumiy maydoni 0,5 ga va x.k.). Birinchi turdagi yodgorliklarga sunggi bronza asrida paydo bulgan Elkendepa yodgorligi kiradi. Bu yodgorlik ikki kismdan kup burchakli arxi — a'lo va unga tutash asosiy shaxar kismdan iborat. Janubiy Turkmanistonning ilk temir asri kadimiyotlari arxeologik davrlanishga kura 3 — asosiy davrga bulinadi. (Janubiy Turkmanistonning ilk temir asrini davrlashtirish uchun asos bulib Yazdepa yodgorligi xizmat kilgan).

Yaz - I; Yaz - II; Yaz - III;

Yaz I — miloddan awalgi 950 — 750 yillar.

Yaz II — miloddan awalgi 750 — 500 yillar.

Yaz III - miloddan awalgi 500 - 400 yillar.

Yodgorliklarning tuzilishida uzgarish bilan bir katorde Janubiy Turkmaniston xududida ilk temir asrida kulolchilikda xam bir kator sezilarli uzgarishlar yuz beradi. Jumladan kulda yasalgan charxsiz) idishlar soni ortadi, ular tashki tomondan rasmlarga bezaladi, keyinchalik VII —VI asr oraligida aksariyat sopol idishlar

bankasimon kurinishga ega buladi. Me'morchilikda sun'iy uslubda kurilgan saxn (platformalar) paydo buladi, doirasimon shakldagi mustaxkam kal'alar yuzaga keladi. Janubiy Turkmanistonda bu davrga kelib Shimoliy Baktriya (Surxondaryo viloyati, Janubiy Tojikiston xududlari) dagidek sun'iy sugorishga asoslangan dexkonchilik madaniyatining tarakkiy etganligini kuzatamiz. Yukorida Urgulsoyning bosh kismida boshlangan. Ulka madaniy xayotida sodir bulgan bu uzgarishlar ildizini bir gurux olimlar (VLSarmanidi va x.k.) Xurosondan , ayrimlari (A.Askarov, Yu.Zadneprovskiy) Fargona vodiysidan izlaydilar. Ularning fikricha, bu madaniyat boshka yurtlardan axolining bu yurtlarga kelib urnashishi okibatida paydo bulgan. Miloddan awalgi VII asr urtalarida Kuchuktepa madaniyati zaminida kadimgi Baktriya madaniyati shakllangan. Baktriya madaniyati bevosita Kuchuktepa madaniyatining uzviy davomidir . Bu davrda ikki kismli shaxarlar barpo bulgan, sinfiy munosabatlar tulik shakllangan va davlat vujudga kelgan. Surxondaryo viloyatida kadimgi Baktriya madaniyatining 36 yodgorligi aiklangan. Bular kurilish uslubi, maydoni va vazifasiga kura kuyidagi turlarga bulinadi. 1. Shaxarlar. 2. Arkli kishloklar. 3. Arksiz kishloklar. 4. Xarbiy istexkomlar. 5. Ibodatxonalar. 6.Kurgonlar. Bu yodgorliklar asosan uch dexkonchilik ulkalarida joylashgan. Sherobod dexkonchilik ulkasi Ulanbuloksoy va Sheroboddaryo xavzalarini uz tarkibiga oladi. Bu ulkada Kuchuktepa, Pshaktepa, Talloshkon va Jondavlattepa kabi yodgorliklar joylashgan. Boysun dexkonchilik ulkasi Bandixon, Mirshodi, Sangardak, Tupalang daryolari xavzalarini uz ichiga oladi. Voxaning Markaziy shaxri Kiziltepa bilan bir katorda Bandixontepa, Gozimulla kabi yodgorliklar mavjud. Surxon dexkonchilik markazi Surxondaryoning urta okimi va kuyi okimlari atrofidagi xududlarni uz tarkibiga olgan. Bu ulkaning markazi Bandixontepa xisoblangan. Xar bir dexkonchilik ulkasi uzining bosh shaxri, 5 — 6 tadan kishlok va kal'alariga , diniy in — shootiga ega bulgan. Bu juda muxim siyosiy vokea bulib, kichik davlatlarning shakllanish jarayonini aks ettiruvchi arxeologik dalildir. (Ana shunday kichik davlatlarning 2 tasi Aleksandr Makedonskiy yurishlarini ta'riflagan grek tarixchilari malumotlarida uchraydi. Paretakena, Bubakena). Miloddan awalgi VI asrda bu davlatlarning birlashtirilishi tufayli Urta Osiyodagi eng kadimgi davlatlardan biri xisoblangan kadimgi Baktriya podsholigi vujudga kelgan. (Baktriya yoki Baktriana yunoncha, forsiyda Baktrii. Zardushtiylikning mukaddas kitobi «Avesto»da bu ulka Baxdi nomi ostida tilga olinadi. Baxdi Eronga nisbatan sharkda joylashgan ulka degan manoni anglatadi. Bu podsholik tarkibiga Surxondaryo viloyati xududidan

tashkari Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afgoniston erlari xam kirgan. Kadimgi Batriya davlatining siyosiy tarixiga murojaat etsak, miloddan awalgi VI-IV asrlarda bu davlat Eron axmoniyarlari davlatiga karam davlatga aylangan. Bu vokea miloddan awalgi 545-539 yillar oraligida Kir boshchilik kilgan Eron kushinlari tomonidan Urta Osiyoni bosib olinishi okibatida ruy bergan. Shu sanalardan tortib to makedoniyalik Iskandar kushinlari tomonidan kadimgi Eron davlatining tor—mor etilishiga kadar Baktriya Eron axmoniyalarining katta satrap (viloyatlaridan) biri xisoblangan. Arxeologik manbalarga tayanib fikr yuritadigan bulsak, eron axmoniyarlari baktriyaliklar madaniyatiga aytarli ta'sir kursata olmaganlar. Ayrim xorijiy olimlar Uzbekistonda shaxar turkumidagi madaniyatning shakllanishi va davlatning paydo bulishini bevosita Eron axmoniyarlari istibdodi bilan boglaydilar. Bizningcha, miloddan awalgi VI —IV asrlarda Baktriya fakat siyosiy jixatdangina axmoniyalar imperiyasiga tobe bulgan. Iktisodiy va madaniy jixatdan ular erkin bulganlar. Shaxarsozlik va xunarmandchilikning rivoji buning isbotidir. Baktriya madaniyatiga oid Kiziltepa va Xayitobodtepalarda arxeologik tadjikotlar ut kazilgan. Bu shaxarlarning umumiy maydoni 10 gektardan 22 gektargacha bulib, Arkia'lo va shaxar kislardan iborat. Xar ikki kism mustaxkam devor bilan urab olingan. Xarbiy istexkom kal'alardan Sherobod voxasidagi Tallosh kon yodgorligi tulik tadjik kilingan. Bu yodgorlik doira shaklida bulib, diametri 135 metr, 5 metrli devor bilan uralgan, tashki tomondan 15 ta burj bilan muxofazalangan. Kal'a devori va burjlarda shaxmat kataklarini eslatuvchi ikki kator shinaklar joylashgan. Kal'a darvozasi uzun yulak shaklda bulib, xarbiy jixatdan juda mustaxkam kurilgan. Shurchi tumanida joylashgan Kizilcha, Muzrobotdagi Kuchuktepa. Pshaktepa yodgorliklari xam tulik kazio urganilgan. Bu yodgorliklardan xam kadimgi Baktriya madaniyatiga oid muxim malumotlar tuplangan. Kadimgi Baktriya madaniyatining ta'siri Xorazm va Sugd xududlarida yuzaga kelgan me'moriy inshootlar kurilishida va kulolchilik turlarida yakkol kuzga tashlanadi. Baktriya madaiyati miloddan awalgi IV asrning 30-yillarida boshlangan Makedoniyalik Iskandar istibdodi okibatida inkirozga yuz tutadi. Viloyatdagi kadim Baktriya madaniyatiga oid 36 yodgorlikdan 33 tasi makedoniyalik Iskandar boshchiligidagi kushinlar xujumi tufayli yondirilgan va vayronaga aylantirilgan.

## 7-Mavzu: URTA OSIYO ILK TEMIR ASRIDA .

(2 soat)

### 3- KISM.

Reja:

1. Fargonaning ilk temir asri madaniyati.
2. Toshkent voxasi ilk temir asrida.
3. Zarafshon voxasining ilk temir asri madaniyati.
4. Xorazm ilk temir asrida.

### TAYANCh SUZLAR.

Chust madaniyati, Eylaton madaniyati, Chust, Dalvarzin, Burguluk madaniyati, LATerenojkin, XDuke, Marokand, Samarkand sugdi, Buxoro sugdi, Kashkadaryo Sugdi, Kuykirilgan kal'a, Kal'alikir, Kuzalikir, Kuyusoy madaniyati. Fargonaning ilk temir asri madaniyatlaridan biri Chust madaniyati. Bronza (jez) asriga bagishlangan ma'ruzalarda biz Chust madaniyatiga, uning asosiy yodgorliklariga batafsil tuxtalgan edik.

Chust madaniyatining boshlangich nuktasi miloddan avvalgi II-1 ming yilliklar oraligi balsa, bu madaniyatning oxirgi mavjud bulgan asrlarini aniklash muammolari va tortishuvga sabab bulib kelmokda. Eng sunggi ma'lumotlarga kura, Chust madaniyatining yukori sanasi II ming yillikning oxiri balsa, bu madaniyatning kuyi sanasi miloddan oldingi VIII—VII asrlar deb belgilangan. Fargonada ilk temir davrida Chust madaniyatidan sung shakllangan madaniyat Eylatan madaniyati deb nom olgan. Eylatan ilk bor 1934 yilda B.A.Latinin tomonidan urganilgan bulib, shu yodgorlikdan uziga xos sopol buyumlar kolleksiyasi tuplangan. Xozirda Fargona tarixida Eylatan deb nomlangan bu davr bir gurux olimlar tomonidan (Yu.A. Zadneprovskiy va x.k.) miloddan avvalgi VII-I vasrlar deb, N.G.Gorbunova va boshka mutaxassislar tomonidan miloddan avvalgi VI—IV asrlarda mavjud bulgan deb aniklangan. Fargona vodiysida Eylatan davri yodgorliklari barcha xududlarda mavjud bulganligi aniklangan. Eylatan madaniyati (yoki N.G.Gorbunova bu davr madaniyatini eylatan-oktom madaniyati deb nomlagan)ning yirik yodgorligi umumiy maydoni 500-400 metrni tashkil etgan Eylatan shaxri deb xisoblanadi. (Eylatan yodgorligida darvoza urni, shaxarliklar xonadoni, mudofaa istexkomlari (devor va burjlar) kazib urganilgan). Eylatan davri xujaligining asosini

dexkonchilik tashkil etgan. Bu davr axolisi bugdoy, arpa etishtirish bilan bir katorida usha davrda sholi etishtirishni xam kashf etganlar. Mexnat kurollaridan tegirmon va yogurchok toshlari yoki don tuyushga muljallangan tosh kurollarni, xarbiy kurol — aslaxalardan bronzadan yasalgan uch kirrali kamon ukklarini kursatib utish mumkin. Eylatan davrining ilk boskichida sopol idishlar yasash uchun charx paydo buladi. (Butun Chust davri sopol buyumlari kulda yasalgan edi). Shunday bulsada Eylatan davrida charxsiz yasalgan sopol idishlar xam kupchilikni tashkil etgan. Eylatan sopol idishlari yasaliş texnologiyasi, tarkibi va bezatiliş uslublariga kura bir necha turlarga bulinadi. Ayniksa Eylatan davrida sopol buyumlarga ularga pishirmasdan turib sirtiga naksh berish juda tarakkiy topgan. Eylatan sopol idishlarining eng kup tarkalgan turi tagi aylana shaklda yasalgan sopol kosalar xisoblanadi. Fargona Eylatan davri me'morial yodgorliklari turkumiga Oktosh mozori xam kiradi. (Oktosh yodgorligi Fargonadan 9 km. Janubda adir buyida joylashgan. Tosh uyumlaridan iborat bu mozor diametri 3 — 5 metrgachabulgan kabrlardan tashkil topgan. Kabr ustidagi uyum ostida erga kazilgan kabrning laxat kismi uzunligi 2,6 mx eni 1,5 metrni tashkil etadi. Dafn etilgan elkasi bilan laxatga kuyilgan bulib, boshlari garbga karab yunalgan. Oktosh bilan bir katorida Kungay, sufan va Dashti — asht kabi mozorlar xam urganilgan bulib, bu mozorlardan Fargonaning xam miloddan awalgi VI —IV asrlar kuchmanchi chorvador xalklari va ularning moddiy madaniyatini ifoda etuvchi kuplab ashyoviy manbalar tuplandi.

2. Toshkent voxasi ilk temir asrida. Toshkent voxasida ilk temir davrida mavjud bulgan madaniyat Burguluk madaniyati deb nomlangan. Burguluk madaniyatiga mansub dastlabki manzilgoxlar 1940 yilda ATTerenojkin tomonidan kashf etilgan. Oxangaron daryosining urta okimida joylashgan Burguluksoy xavzasi Toshkent voxasida ilk dexkonchilik madaniyati tarkib topgan mavzelardan biri bulib chikdi. Dastlabki urganilgan yodgorlik nomiga nisbat etilib, Toshkent voxasida miloddan awalgi 1 ming yillik davomida yuzaga kelgan ilk dexkonchilik madaniyati Burguluk madaniyati deb nomlangan.

ATTerenojkin Burguluk madaniyati yodgorliklarining davriy tasnifini ishlab chikdi va bu madaniyat tarixini ikki boskichga buldi. U awal Burguluk madaniyati yoshini miloddan awalgi III — 1 asrlarga oid deb topdi. Keyinrok esa bunga aniklik kiritib, uning yoshini miloddan awalgi IV —III asrlar bilan belgiladi. 1972 yildan boshlab Burguluk madaniyati tarixi bilan bevosita X.Duke shugullana boshladi. X.Duke Tuyabugiz suv omborining kurulishi munosabati bilan Oxangaron daryosining chap soxilida muntazam ravishda kidiruv va kazuv ishlarini olib bori, bu madaniyatga mansub 14 ta kishlok va 60 ga yakin yarim ertula va chayla shaklidagi

kulbalarning koldiklarini ochib urgandi. Burguluk madaniyati kishlok koldiklarini kazish vaktida bexisob sopol parchalari, kumtoshdan yasalgan uroksimon pichoklar, bronzadan yasalgan urok va pichoklar, bigiz, ignalar topilgan. Topilmalar orasida ikki parrakli paykon xam bor. Tosh kurollar orasida yorguchoklar, tosh ugir va ugir soplari kuplab uchraydi. Sopollar kulda ishlangan. Toshkent voxasining kadimgi dexkonlari va xunarmandlari xam Burguluk madaniyati zamonida sopol idishlar ishlab chikarishda kulolchilik charxidan foydalanishni bilma ganlar. Sopollar ikki tabakali xumdonlarda emas, balki ochik gulxanlarda pishirilgan. Shuning uchun ular kupol, murt bir tekisda jarangdor kilib pishirilmagan. Sopol idishlarning turlari xam kup bulmagan. Ular osti yassi kilib ishlangan kosalar, tuvakcha va xurmachalardan, aksariyatining sirtiga ok kizil buyok berilib, sung pardozlangan. Sopollar uz tashki kurinishi jixatidan Chust madaniyati sopollariga uxshab ketadi. Burguluk madaniyatiga mansub barcha moddiy ma daniyat namunalarini kayta taxlil kilish asosida X.duke bu madaniyatni miloddan awalgi IX —VTII asrlarga mansub ekanligini isbotladi.

3. Zarafshon voxasining ilk temir asri madaniyati. Zarafshon voxasining ilk temir asri inshootlari Samar — kand va uning atrofida (Afrosiyob, Kuyuktepa, Lolazor ), Buxoroning kadimiy katlamlari Kalkonota, Karshi voxasida Erkurgon va Daratepalar kabi yodgorliklar orkali malum. Zarafshon voxasida joylashgan, shuningdek tarkibiga Kashkadaryo voxasini xam bir — lashtirgan Sugdiyona Urta Osiyoningeng yirik madaniy markazlaridan biridir. Sugdda ilk shaxar madaniyatining shakllanishi milod — dan awalgi 1 ming yillik boshlarida ruy bergan. Samarkanddan aksariyat mutaxassislarning ta'kidlash — laricha Karshi voxasida mavjud bulgan bulib uning markaziy shaxri Erkurgon xisoblangan. Spitamen boshchi uncha uzok bulmagan masofada joylashgan Kuyuktepa yodgorligi Samarkand Sugdining eng kadimiy markazi xisoblangan. Miloddan awalgi VII asrga kelib kadimgi Samarkandning shakllanishi tufayli Kuyuktepa asta —sekin uz axamiyatini yukotgan va Afrosiyob urnida ilk shaxar shakllana boshlangan. Miloddan awalgi VI — IV asrlar oraligida Afrosiyob ( yunon manbalarida Marokand) 200 gektardan iborat shaxar sifatida tulik shakllangan. Samarkand atrofida ilk kanallarning shakllanishi (Dargom kanali) va Afrosiyob atrofida ilk xunarmandlar kishloklarining (Lolazor yodgorligi) shakllanishi xam ayni shu miloddan awalgi VI — IV asrlar ya'ni kadimgi sugd davrida sodir bulgan. Miloddan awalgi VI — IV asrlar oraligida sugd ulkasida uch markazning mayjudligini kuzatamiz.1.Samarkand Sugdi — markazi Afrosiyob. 2.Buxoro Sugdi — markazi Buxoro shaxri urnida. 3.Kashkadaryo Sugdi — markazi Erkurgon (Karshi shaxri atrofi).«Avesto» da Axuramazda tomonidan yaratilgan yurt



— ning ikkinchisi bulib Gava — sugdiylar yashaydigan bu yurt miloddan avalgi VI — IV asrlar davomida Baktriya ulkasi singari Eron axamoniylar davlati asoratiga tushib koladi. Makedooniyalik Iskandarning Marokand (Samarkand) ga yurishlari davomida Sugd ulkasida yana 2 ta viloyat ya'ni Nautaka Keenippalar mavjud bulganligi ta'kidlangan. Shundan Nautaka viloyati ligida makedoniyalik Iskandar kushinlariga karshi mardonavor kurash olib borgan sugdiylarda xarbiy bilimlar xam tarakkiy etganligidan dalolat beradi. Afrosiyob 1, Erkurgon 1, Buxoro 1 va x.k. deb nomlangan katlamlardan topilgan arxeologik ashyoviy manbalar (temir va bronzadan yasalgan kamon uklari, bankasimon sopol idishlar va boshka turdagi topilmalar) Sugd moddiy madaniyatini Baktriya, Xorazm madaniyatlariga monand xolda rivojlanganligidan dalolat beradi. 4.Xorazm ilk temir asrida.

Tarixiy adabiyotlarda shu jumladan Urta Osiyo arxeologiyasida xam «Katta Xorazm podsholigi» va «Kadimgi Xorazm» tushunchalari mavjud. «Avesto» ma'lumotlari asosida mashxur tarixchi olim S.T.Tolstov, Evropa olimlaridan V.Xenning xamda LGershevichlar «Katta Xorazm davlati» xakidagi arxaologik izlanishlarni va tarixiy — geografik ma'lumotlarni solishtirib uz karashlarini bayon etganlar. S.T.Tolstov «Avesto» da Zaratushtraning vatani Aryanem Vaychax — kadimgi Xorazm bulgan deydi. «Avesto» ga kura, Zara tushtraning vatani Aryanem Vaychax Daytiya daryosining soxilida joylashgan.

S.T.Tolstov va boshka bir kator olimlar Daytiya bu Amudaryo deb xisoblaydilar. «Avesto» da mavjud ma'lumotlarga e'tibor bersak «Katta Xorazm»ga Urta Osiyoning katta kismi kirgan. Bu xabar yunon mualliflari tomonidan xam tasdiklanadi. Gerodot «Katta Xorazm» davlatining ekin maydonlarini sugorish uchun Oks daryosiga tugon kurulganligini bayon kilib utgan. Olimlar Oksni Tajan daryosi bilan solishtirib, xozirgi Xirof va Mari viloyatlari «Katta Xorazm» davlati tarkibida bulgan degan goyani ilgari suradi. «Katta Xorazm» davlatining kachon inkirozga yuz tutganligi tugrisida tarixiy va arxeologik ma'lumotlar «Kattta Xorazm» ga tegishli kator janubiy viloyatlar Midiya davlati davridayok undan ajralib ketgan, uning yana kator viloyatlari esa Axamoniylar Eroni davlati tomonidan bosib olingan. Miloddan avvalgi IV asrga kelib «Katta Xorazm» ning Amudaryoning kuyi xavzasidagi xududida Kadimgi Xorazm davlati tashkil topdi. Uning podsho sifatida Farasman ismli shaxs grek tarixchilari tomonidan tilga olinadi. Iskandar Zulkarnayn Xindikush orkali Baktriyaga undan sung Sugdga kushin tortib kelganda Xorazm podshosi Farasman uning xuzuriga sovga-salomlar bilan kelgan va shimol tomonlarga yurish kilmokchi bulsa, uz kushini bilan unga yordamga tayyor ekanligini bildirgan. «Katta Xorazm» davlati xususida gap ketganda fakatgina Farasman podsholik kilgan

kadimgi Xorazm davlati tushunilmasdan, balki uning kadimgi xududiy chegaralarini nazarda tutgan xolda fikr yuritmok lozim. Kadimgi Xorazm davlati Orol dengizining janubiy sarxadlari hozirgi Korakalpogiston Respublikasi, Xorazm viloyati va Toshxovuz viloyatining katta kismi kirgan. Miloddan avvalgi VI —U asrlarda tarakkiy etgan kadimgi Xorazm davlati xakida arxeologik manbalar guvovlik beradi. Xorazmning ilk temir asriga oid unlab ka'l'alar, kadimgi shaxar koldiklari, mozorlar urganilgan. Massaget kabilalari guruxiga oid Tugizkent, Uygarak kabi mozorlar, Kuykirilgan kal'a, Kal'alikir va Kuyusoy madaniyatini tashkil etgan mozor — kurgonlar jumlasidandir. Kuykirilgan kal'ada arxeologik izlanishlar 1951 — 1957 yillarda amalga oshirilgan. Aniklanishicha, bu shaxar kadimgi Xorazm davlatining miloddan avvalgi IV va milodiy I asriga tegishli shaxarlaridan biri bulgan. Shaxar doira shaklida kurilgan baxaybat kal'a bulgan. Shaxar tashki mudofaa devori 9 ta burj bilan kushimcha muxofazalangan. Xorazmning ilk temir asri yodgorliklari turkumiga Kuzalikir shaxarchasi xam kiradi. Umumiy maydoni uzunligi 1 km teng bu yodgorlik mustaxkam mudofaa istexkomi bilan muxofazalangan. Mudofaa istexkomlarida esa yulaksimon kengligi 2,50 metrdan 4 metr keladigan xonalar joylashgan. Shaxarning markazida yirik inshoot (ma'muriy binolar majmui) joylashgan bulib uning aslosini xajmi 285 kv. metrni tashkil etadigan zal tashkil kiladi. Shaxarning ichki kismida temir va mis rudasini eritadigan uchok izlari va kimmatbaxo toshlarni ishlaydigan ustaxona koldiklari urganilgan. Ilk temir asriga mansub kadimgi Xorazm yodgorliklaridan yana biri Kal'alikir xisoblanadi. Bu shaxar kadimgi Charmanob kanali buyida barpo etilgan bulib, mustaxkam mudofaa devori, burjlar va kushimcha mudofaa istexkomlari bilan kuchaytirib kurilgan. Tomonlari 1000 x 700 metmi tashkil etadi. Kal'alikir shaxrining garbiy kismida mudofaa devoriga yakin joyda axamoniylar Eroni maxobatli me'morchiligiga mos ravishda saroy majmui joylashgan. Tadkikotchilar fikricha, bu me'moriy inshoot kurilishi tugallanmay kolgan. Bu xolni Kuykirilgan kal'ada tadkikot ishlari olib borga mutaxassislar Xorazmning axamoniylar Eroni asoratidan kutulish bilan boglaydilar. Xorazmning ilk temir asriga mansub yodgorliklaridan yana biri xovlilar xisoblanadi. Ana shunday xovlilar Kaltaminor kanali xavzasi buylab xar kaysi 60 metrdan 150 metr oralik masofada joylashgan. Ana shu xovlilarning biri — Dingilji deb nomlanib u tulik kazib urganilgan. Kadimgi Xorazm madaniyatining shakllanish jarayoniga yana bir bor kaytsak miloddan avvalgi VI —IV asrlar Xorazm madaniyati bilan undan sung shakllangan5 madaniyat urtasida tubdan fark bor degan

fikrlar mayjud. Bir gurux mutaxassislarbu xolatni ya'ni Xorazmning arxaik davri (miloddan awalgi VI — IV asrlar) madaniyatidan miloddan awalgi IV asrdan sung shakllangan madaniyatini tubdan fark kilinishi etnik jarayon bilan boglaydilar. (BJVaynberg, LVPyankov ayni shu fikrni bayon etganlar). Bu nuktai nazarga kura miloddan awalgi 1 ming yillikning birinchi yarmida Uzboy va Sarikamish xavzalariga (bu joydan Amudaryo Kaspiygacha kuyilgan) katta bir gurux axolining kuchib kelish jarayoni sodir bulgan. Bu erda joylashgan axoli vafot etganlarni Kuyisoy deb nomlangan joyda dafn etgan va bu joyda urganilgan mozorlar va undan topilgan ashyoviy manbalar Kuyisoy madaniyati deb nomlangan. Kuyisoy madaniyatini koldirgan axoli esa miloddan awalgi VII asrda Midiyaning Xoaren axolisi bulib, ular sersuv Uzboy xavzalariga kelib umashganlar. Kuyisoyliklar Xuroson xududida istikomat etgan «Katta Xorazm» podsholigi axolisi bulmish xorasmiylarning bir guruxi bulgan. Uzboy xavzalariga kelib umashgan kuy-isoyliklar yarim dexkon, yarim chorvador bulib yashab, asta —sekin Xorazm xududiga kuchib uta boshlaganlar. Dastawal ular kuyisoyliklar Xorazmning chap kirgok kismini uzlashtirib asta —sekin uning asosiy voxa kismlariga xam kirib borganlar. Urta Osiyo mintakasida ilk temir asriga utish tufayli va undan sung yuz bergan ijtimoiy tarakkiyot tufayli ikki tarixiy ulka Xorazm va Baktriyada ilk davlatchilik tuzumi shakllandi.

## 8-Mavzu: URTA OSIYONING KADIMGI DAVLATLARI.

1 — kism. Baktriya salavkiylar, Yunon — Baktriya va Kushon podsholigi davrlarida.  
(2 soat)

Reja:

1. Urta Osiyoning janubiy viloyatlarida Salavkiylar va Yunon — Baktriya davlatlari tarkibida.
2. Shimoliy Baktriyaning Yunon — Baktriya podsholigi davri madaniyati.
3. Baktriya Kushon podsholigi davrida. 4. Shimoliy Baktriyaning Kushon podsholigi davri madaniyati.

Oks, Yaksart, talant, satraplik, Tarmita, Oks buyidagi Iskandariya, Kampirtepa, Xolchayon, Dalvarzintepa, Ayritom, Temir darvoza, Amudaryo xazinasi, ellinizm

madaniyati, sulolaviy san'at, buddaviylik san'ati, san skrit, kxaroshtxi, baktriya yozuvi, Kushon podsholari: Geray (Sanab), Kujula Kadfiz, Vima Kadfiz, Kanishka 1.

1.Urta Osiyoning janubiy viloyatlari Salavkiylar va Yunon — Baktriya davlatlari tarkibida. Miloddan avvalgi 330 yilda kuxna dunyoning eng yirik davlatlaridan biri xisoblangan axamoniylar Eronini inkirozga duchor qilgan Aleksandr Makedonskiy boshlik yunon — makedon kushinlarining Okuz (Oks) va Yaksart oraligidagi erlarniegallash uchun yurishi boshlanadi. Bu xarbiy muxoriba sugdliklar, baktriyaliklar va saklarning kattik karshilik kursatishlariga karamasdan miloddan avvalgi 327 yilda Oks va Yaksart oraligidagi katta bir kismni egallash bilan tugaydi. Bu sanadan boshlab Markaziy Osiyoning ba'zi bir viloyatlari kabi Baktriya xam Iskandar Zulkarnayn davlati tarkibiga kiritiladi. Surxondaryo viloyati va unga tutash Janubiy Tojikiston xududida olib borilgan arxeologik izlanish natijalari baktriyalik larni Iskandar Zulkarnayn yurishlari davrida moxir me'mor, usta xunarmand va mirishkor dexkon sifatida karashga imkon beradi. «Baktriyaning tabiati boy va turli —tuman, deb yozgan edi yunon tarixchisi Kvint Kurtsiy Ruf. Ba'zi joylarda daraxtlar va tok xaddan tashkari shirin meva beradi. Unumdor erlarni kuplab suv manbalari sugoradi, yumshok tuprokli don ekiladi, kolgan joy yaylov sifatida koldiriladi. Iskandar Zulkarnayn yurishlari arafasida axamoniylar Eroni tarkibiga 12 —viloyat bulib kirgan Baktriyaning bu davlatdagi mavkei juda katta bulgan. Baktriyaning iktisodiy imkoniyatlarini tarix otasi Gerodotning dalillaridan xam kuzatish mumkin. Bu ulkaning axamoniylar Eroni gaznasiga tulaydigan yillik ulponi 360 talant (10 tonni) kumushga teng bulgan. Baktriyalik zadogonlarning boyligi tugrisida xozirda Buyuk Yuritaniya muzeyida saklanayotgan uzining tarkibiga 170 dan ortik oltin va kumushdan tayyorlangan «Amudaryo xazinasini»dagi nodir buyumlar orkali fikr yuritish mumkin. Eron shoxanshoxlari Baktriyaga uzlarining sharkdagi asosiy tayanch kuchi sifatida karashgan. Xususan, Eron shoxi Doro II ning Iskandar Zulkarnaynga karshi kurashi jarayonida Baktriya satrapi Bess baktriyaliklar bilan birga sugdliklar va xindulardan iborat lashkarga boshchilik etgan. Shunday kilib Iskandar Zulkarnayn xujumi arafasida Baktriya siyosiy, iktisodiy, madaniy soxada rivojlangan davlat sifatida malum bulgan. Iskandar Zulkarnayn yurishlarini madx etgan Kurtsiy Ruf asarida Baktriyada ikki viloyat — Paretaka va Bubakena tilga olingan. Utgan asrda yashagan tanikli avstriyalik sharkshunos olim V. Tomashek Paretaka nomini «kirgoklarni suv yuvib turgan ulka» deb izoxlagan. Arxeologiya dalil lariga asoslanib arxeolog tarixchilar Parteka mulkligini Sherobod voxasi va unga tutash tog oldi erlariga joylashtirsalar Bubakena tarkibiga Bobotogning xar ikki tomonidagi xududlar kirgan deb ta'kidlaydilar. Iskandar Zulkarnayn boshchiligidagi

kushinlar Baktriyada juda kattik karshilikka duch keldilar. Spitamen boshchiligidagi sugdiylar va Baktriyaliklarning kuzgolonini bostirish uchun iskandar Zulkarnayn juda shiddat kursatgan. Yunon tarixchilari Arrian va Kurtsiy Ruf malumotlariga kura bu kurasli miloddan awalgi 328 yilning kuziga va 327 yilning baxor fasliga tugri keladilskandar Zulkarnayn va uning lashkarboshilari Krater va Polikerpon boshligidagi kushinlar baktriyaliklar kuzgolonini miloddan awalgi 327 yilda shavkatsizlik bilan bostirganliklaridan sung Baktriya ulkasi batamom Iskandar Zulkarnayn davlati tarkibiga kiritiladi. Iskandar Zulkarnayn vafotidan sung (miloddan awalgi 323 yil) Baktriya, jumladan, Surxondaryo erlari miloddan awalgi IV asrning oxiridan III asrning urtasigacha xukm surgan Salavkiylar davlati tarkibida buladi.

Yunon - Baktriya podsholigi Miloddan awalgi III asrning 50 —yillarida Salavkiylar davlati Yunon — baktriya va parfiya davlati ajralib chikdi. Yunon — Baktriya davlatining asosiy uzagini Baktriya ulkasi. Ya'ni Surxondaryo, Janubiy Tojikiston va Shi moliy afgoniston xududlari tashkil etgan. Bu podsho likning asoschisi Diodat bulib, uning markazi kadimgi Bakter (Balx) shaxri xisoblangan.

Yunon — Baktriya davlatining eng yirik vakillaridan biri Demetriy sanaladi. Podsho Demetriy davrida Yunon— Baktriya davlati tarkibiga Shimoliy Xindiston erlari xam kushib olingan. Ba'zi bir mutaxassislarning fikriga kura Yunon — Baktriya podsholigiga bir davr oraligida Sugd ulkasi xam karam bulgan. Yunon — Baktriya podsholigining eng oxirgi vakili Geliokl xis — obla nadi. Podsho Geliokl xukmronligi davrida ya'ni miloddan awalgi II asrning turtinchi choragida Yunon — Baktriya podsholigi Markaziy Osiyoning shimoliy viloyatlarida va Sharkiy Turkiston erlarida istikomati kilgan kuchmanchi kabilalar, jumladan yuechji, yovchi, toxarlar, pasianlar, sakarauklar tomonidan egallanadi. Uz navbatida milodiy 1 asrga kelib ana shu kabilalardan yovchi (yuechji) toxarlar Kushon davlatiga asos solganlar. Shimoliy Baktriyaning Yunon — Baktriya davri madaniyati Tarixiy manbalarda Yunon — baktriya podsholigi «ming shaxarlar mamlakati» deb atalgan. Ming shaxar iborasi garchi mubolaga bulsada, lekin bu davrda xakikatan xam kuplab shaxarlarga asos solingan va shuningdek, ulkaning xam iktisodiy, xam madaniy jixatdan yuksalgan davridir. Bu davr madaniyatini sharxlashda ellinizm va ellin davri tushunchasi xam kullaniladi. Xozirgi zamon xorijiy garb tarixnavislik va madaniyatshunoslik fanida ellinizm jarayoni zamonaviylashtirilib, ilgor garbning kolok sharkka nisbatan madaniy yurish deb talkin etiladi. Markaziy Osiyo, jumladan Baktriya madaniyatiga yunon xalklari madaniyati ta'sirini burttirib talkin etish xozirda ba'zi rus olimlariga xam xos. Tom ma'nodagi ellinizm bu ilgor yunon madaniyatining Yakin va Urta

Shahar mamlakatlari xalqlari madaniy yutuqlari bilan birikuv va uzaro xamkorlik jarayonidir. Shimoli — Garbiy baktريا (Surxondaryo) shahar va kishloklarining katta bir kismi Iskandar Zulkarnayn kushinlarining yurishi okibatida vayronaga aylantiriladi. Muzrabotdagi Kusuktepa, Pishaktepa, Sherobod voxasidagi tallashkon kal'asi, Bandixonidagi kishloklar, Mirshodidagi Kiziltepa shaxri va uning atrofidagi xov lilarining axoli tomonidan tashlab chikib ketilishi ayni shu davrda sodir bulgan. Salavkiylar va ayniksa Yunon — Baktريا podsholigi davriga kelib viloyat voxalarida yangi kishlok va shaxarlarga asos solinadi. Bandixon voxasida istikomat kilgan axolining bir kismi soy yokalab tekislikka tushib Jarkurgon atrofiga kelib urnashgan. Mirshodi voxasida yashagan axoli Dalvarzintepa urnidagi shaxarga asos solgan. Sherobod voxasida yashagan axolining bir kismi Angor voxasiga kuchib, bu erda Oysaritepa, Xarabodtepa urnidagi kishloklarni bunyod etgan.

Shurob, Kaftarxona va Pattakesar erlarida istikomat kilgan axoli Tarmita ( Termiz ) ga asos solgan. Surxondaryoning Yunon — Baktريا davri shahar va kishloklari uzining tuzilishi va ulardan davom etgan xayot jarayoniga kura ikki asosiy guruxga bulinadi. Birinchi turdagi shahar va kishloklar miloddan awalgi 1 ming yillik urtalarida vujudga kelgan bulib, Yunon — Baktريا davrida xam bu shaxarlarda xayot davom etgan. Tallashkondagi Tallashkon II, Sherobod voxasining miloddan awalgi 1 ming yillikdagi markazi Jondavlattepa, kuyi Surxon xavzasidagi Xayitobod shular jumlasidandir. Tarmita, Dalvarzintepa, Shurob kishlogi yonidagi Kofirkal'a (Kampirtepa) singari shahar va kaFalar ikkinchi guruxga oid. Bularning shakllanishi bevosita Yunon — baktريا podsholigi xukmronligining ilk boskichida yuz bergan. Viloyat ning Yunon — Baktريا davri madaniyati asosan Tarmita, Dalvarzitepa va Kampirtepalarda utkazilgan kazishmalar orkali ma'lum.

Dalvarzintepa ilk Kushon davrida Xodzo, Kampirtepa esa Pardagvi nomi ostida tilga olingan. Tadjikotlarga kura Tarmitaning Yunon — Baktريا davriga oid madaniy katlamlar uning xozirgi kal'a kismida 2,5 metrni tashkil etadi. Bu davrda Tarmita bir necha gekardan iborat bulib, uz davrining yirik shax — arlaridan biri xisoblangan. Tanikli ingliz olimi V.Tarn asrimizning 50 —yillarida Iskandar Zulkarnayn asos solgan shaxarlardan biri Oks buyidagi Iskandariya Termiz shaxriga tugri keladi degan fikrni bayon etgan. Shimoliy Baktriyaning Yunon — Baktريا davri badiiy san'ati namunalarning kupchilik kismini terokat xaykalchalar, ya'ni mu'jaz san'at namunalari tashkil etadi. Bu turdagi san'at namunalari uz ishlanish uslubiga kura bir necha guruxga bulinadi. Bular yalangoch kiyofada yoki tavonlarga tushgan kiyimlari xilpirab turgan xaykalchalar va shuningdek ayol ma'budaning taxtda utirgan xolatdagi tasvirlaridir. Kampirtepadan topilgan bu guruxdagi

ma'budalardan birining ung kulida kush, chap kulida esa yalangoch bola tasviri bulsa. Ikkinchi bir ma'budaning tizzasida echkisimon oyokli bola kiyofasi ishlangan. Ba'zi bir ayol xaykalchalari fil suyagi yoki marmar toshdan yunilgan bulib, uzining nafisligi va yuksak badiiyligi bilan ajralib turadi. Bu davrning ba'zi bir terrokat xaykalchalarida mutaxassislarning ta'rificha, bevosita Yunon — Baktriya xukmdorlarining aynan kiyofasi aks ettirilgan Yunon — baktriya podsholigi shimoliy Baktriyada tovar — pul munosabatlarining shakllangan davridir. Kadimgi baktriyada miloddan awalgi VI — IV asrlarda muomalada pul birligi sifatida Axamoniylar davlatining mis tanga pullari — dariklar asosiy pul birligi xisoblangan. Salavkiylar va ayniksa, Yunon — Baktriya podsholari nomidan zarb etilgan tanga pullarning yuza kismida xukmdorlarning Diodat, Demetriy va boshkalarining kukragigacha tasviri tushirilgan bulib, aynan portret shaklidir. Bu tanga pullarning orka tomonida yunon ma'budalari Zevs, Apollon, Gerakl va shu kabilaming kiyofasi zarb etilgan. Keyinchalik bu tanga pullardagi ma'budalar maxalliy xudolar bilan almashtiriladi yoki ba'zan bir yunon ma'budalari kushalok nomga ega buladi.

Yunon — baktriya davridan boshlab Urta Osiyo xalqlari yozuvida ikki yunalish shakllanadi. Iskandar Zulkarnayn yurishi arafasida Baktriyada Sugd, Xorazm ulkalarida bulganidek, ma'muriy ishlar oromiy yozuvida olib borilgan.

#### **Asosiy darsliklar va o'quv qillanmalar ro'yxati**

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. —T., 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. 2011.
3. Avdusin D.A. Osnovo` Arxeologiya. M. 1989.
4. Artsixovskiy A.V. Arxeologiya asoslari. T. 1974
5. Nil'sen. Arxitektura Sredney Azii. T. 1986.
6. Sagdullaev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. T., 2002.
7. Sa'dullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbaalarda. T. 1996
8. Srednaya Aziya v epoxu kamnya i bronzo`. M. 1966.
9. Amalrik A.S. Mongayt A.L. Chto takoE arxeologiya. M. 1959.
10. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Тошкент «Ўқитувчи» 1990
11. Авдусин Д.А. Основы археологии М., «Высшая школа» 1989
12. Археология Зарубежной Азии. М., «Высшая школа» 1986
13. Эгамбердиева Археология. Тошкент 2008
14. Жабборов И. М. «Жаҳон халқлари этнологияси асослари» Т. Ўқитувчи 2008.
15. Жабборов И. М. «Жаҳон халқлари этнографияси» Т. Ўқитувчи 1987.
16. Жабборов И. М. «Ўзбек халқи этнографияси» Т. «Ўқитувчи» 1994.
17. Этнология. Учебник. Под ред. Г.Е.Маркова и В.В.Пименова М.1994.
18. Этнография Учебник. Под ред. Ю.В. Бромляя и Г.Е.Маркова М.1982.
19. Народы Мира. Серия. М. 1954- 1966.
20. Аннаев Т., Шайдуллаев Ш. Сурхондарё тарихидан лавшалар. Т., 1997.
21. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Л., 1973

22. Брей У., Трамп Д. Археологический словарь М., «Прогресс» 1990
23. Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. М. «Высшая школа» 1985
24. Еленек Я. Большой иллюстрированный атлас первобытного человека М., 1982
25. История государственности Узбекистана. Ташкент. Узбекистан. 2009.
26. Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатларнинг шаклланиш жараёни. Тошкент. Ўзбекистон. 2009.
27. Дервянко Анатолий. Илк аждодимиз изидан. Фан ва турмуш. 2008. 3-4-5-сонлари. 24-бетлар.
28. Сулаймонов. Р.Х. Обирахматский человек и технологическая революция каменного века. Фан ва турмуш. 3-5. 2008. стр. 30-34.
29. Исламов. У.И. Константин Крахмаль. Жанубий Фарғона: инсониятнинг илк бешиги. Фан ва турмуш. 2008. 3-5-бетлар
30. Омонов. В. Тешиктош одами. Фан ва турмуш. 2008. 3-5-сон. 48-51-бетлар
31. Хўжаназаров. М. Қоятошда муҳрланган тарих. Фан ва турмуш. 2008. 3-5-сон. 78-83-бетлар.
32. Чориев З. У., Шайдуллаев Ш. Б., Аннаев Т. Ж. Ўзбекистон ҳудудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. Янги аср авлоди. Тошкент., 2007
33. Пидаев Ш. Аннаев Т. Фуссман Ж. Буддийские памятники в Термезе. Париж. 2011.
34. Пидаев Ш. Ўзбекистон археологиясининг янгиликлари. Токио 2002.
35. Эшов Б. Ўзбек давлатчилиқ тарихи. Янги аср авлоди. Т. 2009.
36. Асқаров. А.А. Ўзбек халқининг этник тарихи ва этногенези. 2008.

#### **Қўшимча адабиётлар**

37. Ламберг-Карловски К, Саблов Дж. Древние цивилизации. Ближний Восток и Мезоамерика. М., «Наука» 1992
38. Масон В.М. Первый цивилизация М., «Высшая школа» 1985
39. Сетон Ллойд. Археология Месопотамии М., «Наука» 1984
40. Леви-Стросс К. Структурная антропология. М. 1983.
41. Чебоксаров Н.Н. Чебоксарова Н.А. Народы рассы, культуры. М. 1984.
42. Морган Л.Г. Лига ходенасауни или ирокезов М. 1983.
43. Аверкиева Ю.П. Индейцы Северной Америки. М. 1974.
44. Фрэзер Д. Золотая ветвь М. 1989.
45. Аверкиева Ю.П. Индейцы Северной Америки. М. 1974
46. Токарев С.А. Основы этнографии. М. 1986.
47. Народы Африки. Под ред. Э.Г. Львовой М. 1986.
48. Народы Средней Азии и Казахстана. Под ред. С.П. Толстова. М. 1962-1963.
49. Древние обряды и культы народов Средней Азии. Отв. Ред. В.Н.Басилов. М. Наука. 1986.
50. [www.history.ru](http://www.history.ru)
51. [www.natura.com](http://www.natura.com)
52. <http://historia-sitefnarod.ru/librarufetnologyrtokarev6htm>
53. [www.archaeology.ru](http://www.archaeology.ru)
54. [www.archaeology.com](http://www.archaeology.com)